

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA KO'RGAZMALI TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Ataboyeva Muxlisa Azimjon qizi
Xalqaro Nordik Universiteti
Tyutor, tarbiyachi – pedagog
mataboyeva@nordicuniversity.org
+99890-817-07-32

Abstract: This article is about the relevance of technical tools, their use in the lesson procedure, the improvement of the quality and efficiency of the lesson with activities such as expanding the musical ability, worldview, imagination and freethinking of students.

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnik vositalarning ahamiyati, ularni dars jarayonida qo'llash va talabalarning musiqiy qobiliyatini, dunyoqarashini, tasavvurini va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar orqali dars sifatini va samaradorligini yaxshilash muhokama qilinadi.

Keywords: Interactive learning, problem-based learning, project-based learning, game-based learning, creative learning, heuristic learning, ICT-based learning

Kalit so'zlar: Interfaol ta'lif, muammoli ta'lif, loyihali ta'lif, o'yin orqali kechuvchi ta'lif, Kreativ ta'lif, Evstrik ta'lif, AKT ta'lif

Bilamizki, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabuslari bilan 2023 – yil “Insonga e'tibor va sifatlari ta'lifi yili” deb nom berildi. Bundan maqsad, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida ushbu fikrni bayon qildilar - “Insonga qachon e'tibor bo'ladi? Ta'lif, ta'lif, ta'lif va yana bir marta ta'lif. Men olti yil oldin shu masalalarga chuqur e'tibor qilib, birinchi kundan beri ta'limimiz haqida ko'p gapiraman. Agar ta'lif bo'lsa, bilim bo'lsa, sifat o'zgaradi. Ta'lif bo'lmasa, sifat o'zgarmasa e'tibor ham o'zgarmaydi”¹.

Darhaqiqat, ta'lif bo'lsa, sifat bo'lsa, turli metod va texnologiyalar o'rganilsa, xorijiy tajribalar bilan tanish bo'lsa sifat bo'ladi, o'zgarish bo'ladi. Agar buning aksi bo'lsa ta'lif tanazulga yuz tutadi.

¹ <https://www/gazeta.uz/oz/> “O'zbekistonda 2023 – yil “Insonga e'tibor va sifatlari ta;lifi yili”deb e'lon qilindi” 20/12/2022

Shu bilan birga musiqa madaniyat o‘qituvchisidan ham hozirgi kunda judda ko‘p talablar qo‘yilmoqda. Bulardan biri qayta tayyorlash va malakasini oshirish, dars jarayonida zamonaviy pedagogik, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, amaliy va inovatsion ilmiy izlanishlar olib borish, zamonaviy shakl va uslublari, elektron axborot resuslaridan keng foydalangan holda ta’lim jarayoning yuqori darajada olib borishdir.

Bugungi kunda musiqa madaniyat darslarini samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir. Zero, interfaol usullar o‘quvchilarining o‘zaro muloqat va o‘zaro ta’sirida dars jarayonini amalga oshiradi. Interfaol ta’lim musiqa sabog‘i jarayonida o‘quvchilarining nazariy bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan badiiy estetik sifatlarini o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanadi. Ma’lumki, an’anaviy musiqiy ta’lim asosan tushuntirish, musiqa tinglash, savodxonlik va o‘zaro savol – javobga asoslangan bo‘lib, tabiiyki, suhbat asosini musiqiy nazariy ma’lumotlar tashkil etgan. Ammo, ma’lumot berishning asosiya manbai o‘qituvchining musiqiy – nazariy bilimi va badiiy ijrosi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik qilar edi. Darsning asosiya vaqtida musiqiy bilimlarini og‘zaki tarzda o‘quvchilarga yetkazib berishga intilardi. Jarayonga faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchilar bu vaziyatda faqat tinglovchi bo‘lib, qo‘sish o‘rganishda esa o‘quvchilar o‘qituvchining ijrosini takrorlab qolaveradi. O‘quvchilarining asosiya vazifasi – o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarida kuylash, savollar bilan murojat qilganida o‘qituvchi aytganlarini takrorlab javob qaytarish, ruhsat etilganidagina so‘zlashdan iborat edi.

Bugungi kunda musiqiy ta’lim amaliyotida interfaol usulining imkonyatlari oldingi, an’anaviy ta’lim imkonyatlaridan kengroq ekanligi yaqqol seziladi. Biroq interfaol metodlarda ish yuritish o‘qituvchining an’anaviy metodlardan voz kechishi degani emas, balki dars mazmunini o‘zaro faollik, hamkorlik, hamijodkorlikda hal etishni tashkil eta olishdir.

Interfaol ta’limning quyidagi metodlari mavjud;

1. Muammoli ta’lim – takomillashgan o‘qitish texnologiyasidir. Bu ta’limda o‘quvchilar ijodiy izlanish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarini shakllanadi.

Bu turdagি ta’limning ilk g‘oyalari amerikalik psixolog va pedagog Jon Dyui (1859 – 1952 – yil) tomonidan asoslangan U 1894 – yilda Chikagoda o‘qitish o‘quv rejasi bo‘yicha emas, balki o‘yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan.

Jon Dyui muammoli ta’lim asosi sifatida quyidagi yo‘nalishlarni belgilagan:
Ustuvor tamoyillarga Ijtimoiy, konstruktiv, badiiy ifodavoy, ilmiy – tadqiqotlar kiradi.

Bu ko‘rsatilgan yo‘nalishlarda ta’limni tashkil etish uchun quidagi vositalardan foydalangan.

1. So‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar
2. O‘yin, mehnat

Bu ta’limni qo‘lash ko‘p afzaliklari mavjud. Bunda o‘quvchilarni hech qaysi biri chetda qolmaydi, bahs munozara jarayonida o‘quvchilarning musiqa haqida fikr, tushuncha shakllanadi, o‘z fikrini erkin va fikrni himyalashga undaydi, har qaysi taraf ma’lum bir xulosalar chiqarishadi, faol munozara yordamida bir - biriga-ishonch va dunyoqarashlari kengayadi. O‘qitish jarayonida o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan tarqatma materiallar, kartochkalar, savolnomalardar va boshqalar kiradi. Shu bilan birgalikda, shu ta’lim asosida inovatsion metodlar qo‘llansa yanada chiroyli bo‘ladi.

Misol uchun, “Assesment” metodini oladigan bo‘lsak, mazkur metod ta’lim o‘quvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muommoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simtomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: - Assesmentlardan dars jarayonida o‘quvchining mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon

qilishda, mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shunningdek, o'z o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituchining ijodiy yondashuvi hamda mavzuning maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.²

2. Loyihali ta'lim – o'quvchilarda izlash, topish istagini paydo qilish, fikrlash, tanqidiy fikrlash kabi faoliyatlarni shakllantiradi, bilim bo'shliqlarini bartaraf etish imkonini beradi. Bunda o'qituvchidan talab qilinadigan narsa, yangi shakl va usul, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishi zarur. Dars jarayonida usullarni individual o'z – o'zini rivojlantirish, ma'lumotlarni topa olish, muloqat ko'nikmalarini rivojlantiradi, iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, o'quvchilarga mustaqil ish yordamida maxsus topshiriqlarni bajarishadi. Bular;

1. Og'zaki
2. Yozilgan
3. Frontal
4. Guruh

Loyiha faoliyatini tashkil etish qoyidalar

1. Loyiha bo'yicha mustaqil ishni tashkil qilish uchun quyidagi funktsiyalarni ko'rib chiqish muhimdir.
2. Barcha mustaqil faoliyatini oldindan rejalashtirilganligiga ishonch hosil qiling
3. Kontent qismida jiddiy ishlarni bajarish
4. Axborotning tizimli hudda muhim
5. Davriy o'z – o'zini nazorat qilish

Loyiha texnologiyasi va muamoli ta'lim samaradorligini oshirish uchun ma'lum peadagogik shart – sharoitlarini ta'minlash kerak

1. O'quvchilar o'rtasida ijobiy turtki bo'lishi
2. Maqsad va vazifalarni aniq belgilash, ularni hal qilish yo'llarini aniqlashtirish

² Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlar nomzodi Xodjayev B.Q, B. Mustafayev "Musiqa o'qitish metodikasi" Buxoro - 2021

3. O'qituvchining hisobot versiyasi, uning ko'lami, shakli va yetkazib berish muddati

4. Konsultativ yordamni tanlash, baholash mezonlarini tanlash

3. O'yin orqali kechuvchi ta'lim – o'quvchilar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etishga ko'ra xilma – xildir. Ijodiy va Qoidaligi o'yinlarga bo'linadi. Ijodiy o'yin – o'quvchilarning o'zлari o'ylab topishadi. Qoidalida esa o'qituvchilarning o'zлari o'ylab topishadi. Qoidaligi o'yinlarga quidagilar kiradi: didaktik o'yin, harakatli o'yin, musiqaviy o'yin, ermak o'yinlarga bo'linadi.

O'yin orqali kechuvchi ta'lim jarayonida o'quvchilar hordiq olishadi, musiqa savodxonlik, ritmik harakatlarni bajarish kabi faoliyatlarini rivojlanadi.

4. Kreativ ta'lim – O'qituvchi ham o'quvchi ham kreativ bo'lishi hozirgi kun ta'limlaridan biri hisoblanadi.

5. Eviristik ta'lim – o'quvchilarni o'zлari qiladigan ish asosida tuziladi, bevosita o'qituvchining faol ishtroki ostida nimadir yaratishadi. Bu metodning "eviristik" degan nomi "tadqiqot" metodi degan so'zdan kelib chiqan. Masalan, o'qituvchi o'zi muammoni shakllantirib va uni o'quvchilar yordamida qisman hal qilishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni gaplar, mulohaza yuritish, taqqoslash, solishtirish, isbotlash, rag'batlantiriladi.

6. AKT ta'limi – bunga komputer, audio, kalonka va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar, multimedia audio ilovalar va yana boshqalardan ham keng doirada foydalaniлади. O'quvchilarda mustaqil ta'lim qobiliyatini rivojlantirish uchun katta e'tibor berish lozim.

Xulosa qiladigan bo`lsak, musiqa pedagogika faoliyatida qo'laniladigan axborot texnologiyalari vositalarining soni ko'payishi natijasida tez va oson tarzda ishlab keta olish, dars mavzulariga oid to'g'ri foydalana olish kabi imkonyatlar bermoqda. Zamonaviy musiqiy komputer texnologiyalardan faol foydalanishga asoslangan mustaqil ta'limni albatta, musiqa o'qituvchisi ham bilishi lozim. Axborot yetkazib berish vositalarining rivojlanishi interfaol rejimda ishslash va fanlararo murakkab ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun keng imkonyatlarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” “O‘zbekiston” nashryoti Toshkent – 2022/19 - bet
- 2.** Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlar nomzodi Xodjayev B.Q, B. Mustafayev “Musiqa o‘qitish metodikasi” Buxoro – 2021
- 3.** <https://www/gazeta.uz/oz/> “O‘zbekistonda 2023 – yil “Insonga e’tibor va sifatli ta;lif yili”deb e’lon qilindi” 20/12/2022